

# TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI.

*Axmatova Mohigul Ergash qizi*

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

## *KEY WORDS*

turizm, transport, xizmatlar, transport turlari, xizmatlar klassifikatsiyasi

## *ABSTRACT*

Maqolada Buxoro viloyatida turizm industriyasida transport xizmatlarining o'rni va ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Chunki turizm industriyasini transportsiz tasavvur qilish qiyib, chunki transport tizimining adekvat infratuzilmasi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, sayyoqlik yo'nalishlaridagi transport xizmatlarining bugungi holati, asosiy mavjud transport vositalari tahlil qilinib, bugungi kunda sohadagi mavjud muammolar va kamchiliklar o'rganib chiqilgan va hal etish bo'yicha tavsiyalar va samarali yechimlar taklif etiladi. Maqolada zamonaviy transport tarmog'ining ishlash xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga "Turizmda transport xizmatlari" tushunchasiga yangi tahrirdagi takomillashgan ta'rif ham ishlab chiqilgan.

## **Kirish.**

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan keyin, milliy iqtisodiyotimizga tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi sifatida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlanirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ushbu soha ijtimoiy va xalqaro mehnat taqsimotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotni jadal su'ratlar bilan rivojlanirayotgan, aholi turmush darajasi hamda sifatini yaxshilashda yuqori samara berayotgan soha bo'lib hisoblanadi.

Fan va texnika sohasining rivojlanishi odamlarni yer yuzining istalgan nuqtasiga tez eltilib qo'yishga qodir transport vositalari (ovozdan tez uchar samolyotlar, tezyurar poezdlar, avtomobillar, muzyorar va suvosti transporti va b.) paydo bo'lishiga, shuningdek transport xizmatlari ko'rsatish sohasiga yangi texnologiyalar joriy etilishiga sabab bo'ldi. Chiptalarni oldindan bronlashning global tizimlarida va chiptalar sotishning noan'anaviy usullarida, shuningdek, yuk va yo'lovchi tashuvchilarning charter dasturlarini vujudga kelishi va rivojlanishida, turli axborot tizimlari ishlab chiqilishida, yo'lovchi tashishning texnik va texnologik tartiblarini

nazorat qilish elektron qurilmalaridan foydalanilishida, ularning xavfsizligi oshirilishida muhim vosita sifatida foydalanimoqda. Muayyan transport tuzilmalari o'rtasida hamda har bir transport turi doirasida yo'lovchi tashuvchilar o'rtasidagi raqobat kurashi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishning takomillashuvi jarayoniga kuchli turtki berdi. Servis sifati va darajasining oshishi harakatlanadigan tarkibning hozirgi texnik jihozlanishida, yo'lovchilarga qulay va shinam shart-sharoitlar yaratilishida, transport vositalari bortida yo'lovchilarning dam olishi tashkil etilishida, yo'lovchilarni ovqatlantirish sifatining oshishida, transport kompaniyalarining doimiy mijozlari uchun rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqilishida o'z aksini topmoqda. Yo'lovchi tashuvchilar transportda yoshi ulug'lar va nogironlarga, shuningdek boshqa toifa yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirish yo'lovchilarning ehtiyojlarini to'laqonli qondirish uchun imkoniyat bermoqda.

## **Tadqiqot metodlari**

Ushbu tadqiqotda turizmda transport xizmatining hozirgi kundagi real ta'rfi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari transoport xizmatlarini tahlil qilishda tadqiqotning uslubiy asoslari ilmiy umumlashtirish, qiyosiy tahlil va vaziyatli

yondashuv usullari bilan taqdim etilgan.

## Tahlil va natijalar

Turizmning rivojlanishiga transport xizmatlarining ta'siri alohida ahamiyat kasb etib, bu ko'rsatgich vaqt o'tishi bilan o'sib bormoqda. Transport yirik tarmoqlararo kompleks sifatida turizm bilan o'xhash xususiyatlarga ega bo'lib, faqat turdosh tarmoqlarni samarali boshqarish bilangina muvaffaqiyatli rivojlnana oladi. Transport turli hududlar va mintaqalardagi joylarni va manzillarni o'zaro bog'liqligiga erishishning asosiy unsuri bo'lib kelmoqda.

Olimlarning fikricha, sayohat kamida ikkita transport turidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Avtobus, havo va temir yo'l transporti umumiylar turizm transportining yuqori foizlarini tashkil qilsa-da, har bir transport turi turizmning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turizmda transport xizmatlarini ko'rsatish uch xil usulda quruqlik transporti, suv transporti va havo transporti orqali amalga oshiriladi (1.2-rasm). XX asrda aviatsiya sanoati turizm xizmatlarini rivojlantirishga eng katta ta'sir ko'rsatdi. Reaktiv dvigatel va reaktiv samolyotning rivojlanishi turizmga ta'sirini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi<sup>1</sup>. Sababi shundaki, bugungi kunda qit'alararo sayohat havo yo'lovchi tashishning eng tez rivojlanayotgan segmentidir, bu o'sish jahon savdosining rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, muntazam tashishlarni amalga oshiradigan kompaniyalar mashhur sayyoohlilik joylarida turli xil charter dasturlarini ishlab chiqishgan.

Transport xizmati xizmatlar tizimida o'ziga xos o'ringa va ahamiyatga ega hisoblanib, transport servisi deyilganda insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning yo'lovchi va yuk tashish bilan bog'liq ehtiyojini sifatli xizmat ko'rsatish yo'llari bilan qondirishga qaratilgan transport xodimlarining nafl fioliyati tushuniladi<sup>2</sup>.

Turistlarga xizmat ko'rsatish, mahsulotning tabiatini va yetkazib berish jarayoni tufayli

murakkab hodisa sifatida qabul qilinadi. Uni saqlash mumkin emas, sotib olishdan oldin tekshirib ko'rish imkoniyati berilmaydi, uni iste'mol qilish uchun sayohat qilish kerak, unda tabiiy va inson tomonidan yaratilgan resurslarga katta bog'liqlik bor hamda u alohida yoki birgalikda sotib olinishi mumkin bo'lgan bir qator komponentlar talab qilinadi. Shuningdek, bu kabi xizmatlar ketma-ket iste'mol qilinadi. Bu transport, turar joy, ovqatlanish, tabiiy resurslar, ko'ngilochar manzillar, banklar, sayohat agentliklari va turoperatorlar kabi boshqa ob'yektlar va xizmatlarni o'z ichiga olgan kompozit mahsulotdir<sup>3</sup>. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar turistlarga transportda xizmat ko'rsatish masalalarining ahamiyati haqida keng ma'lumot bergen bo'lsa-da, iste'molchi sifatida turistga ta'sir qiladigan jarayonlardan ko'rinib turibdiki, xizmat sifati ularning xarid qilish qarorlari va sayohat qilish xatti-harakatlarida katta rol o'ynaydi. Turizmning rivojlanishiga transport xizmatlarining ta'siri alohida ahamiyat kasb etib, bu ko'rsatgich vaqt o'tishi bilan o'sib bormoqda. Transport yirik tarmoqlararo kompleks sifatida turizm bilan o'xhash xususiyatlarga ega bo'lib, faqat turdosh tarmoqlarni samarali boshqarish bilangina muvaffaqiyatli rivojlnana oladi. Transport turli hududlar va mintaqalardagi joylarni va manzillarni o'zaro bog'liqligiga erishishning asosiy unsuri bo'lib kelmoqda.

Transport xizmati xizmatlar tizimida o'ziga xos o'ringa va ahamiyatga ega hisoblanib, transport servisi deyilganda insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning yo'lovchi va yuk tashish bilan bog'liq ehtiyojini sifatli xizmat ko'rsatish yo'llari bilan qondirishga qaratilgan transport xodimlarining nafl fioliyati tushuniladi<sup>4</sup>.

Transport xizmatlari yirik tarmoqlararo kompleks sifatida turizm bilan o'xhash jihatlarga ega va faqat turdosh tarmoqlarni samarali boshqarish orqali muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun imkon yaratadi. Rivojlangan davlatlarning turizmga oid adabiyotlarida takidlanganidek, "Transport turizmning asosiy omili bo'lib,

<sup>1</sup> Weaver David B. Tourism management, John Wiley & Sons. Australia, Ltd., 2000, - 468 c

<sup>2</sup> М.К.Пардаев, Ё.Ж.Исроилов "Автомобиль транспорти хизматини кўрсатувчи корхоналар таҳлилининг айrim жиҳатлари", Тошкент "NOSHIRLIK YOG'DUSI" нашриёти, 2011 йил.

<sup>3</sup> Sinclair, M.T. and Stabler, M. The Economics of Tourism, London: Routledge, 1997.

<sup>4</sup> М.К.Пардаев, Ё.Ж.Исроилов "Автомобиль транспорти хизматини кўрсатувчи корхоналар таҳлилининг айrim жиҳатлари", Тошкент "NOSHIRLIK YOG'DUSI" нашриёти, 2011 йил.

turistlarni o‘z joyidan ko‘chirishda va turli diqqatga sazovor joylarga borishini ta’minlab, turizm bozorida hudud va sayohat manzilgohlarida ichki harakatini osonlashtirish va bog‘lash vazifasini o‘taydi<sup>5</sup>.

Rus olimi Kuskovning fikriga ko‘ra, transport infratuzilmasi transport kompleksining asosini tashkil qiladi, hamda yuk va yo‘lovchilarni tashish uchun foydalilaniladigan haqiqiy transport tarmog‘ini, shuningdek, transport vositalari va doimiy qurilmalardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan tashkiliy tuzilmani ifodalaydi.

Stefen Peyjning ta’kidlashicha, transport infratuzilmasining asosiy vazifasi turistik oqimlarning erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat<sup>6</sup>.

A.O.Ovcharovning fikriga ko‘ra, transport infratuzilmasi ba’zi hollarda turistik va ekskursiya xizmatlarini ko‘rsatadigan turistik faoliyatning mustaqil subyekti bo‘lishi mumkin. Transport bilan ta’minlash turistik mahsulotni tashkil etuvchi asosiy xizmatlarning bir qismi bo‘lib, transport korxonalarini turizm industriyasini tashkil etuvchi o‘ziga xos turistik korxonalar sifatida qaraladi.

M.B.Birjakov o‘zining “Turizm industriyasi” nomli darsligida transport turizm biznesining mohiyati yoki muhim tarkibiy qismi bo‘lib, transport vositalari nafaqat turistlar va sayohatchilar, shuningdek ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga tashishga xizmat qilishi, balki ko‘ngilochar, sport, muzey kolleksiyalari predmeti, modellashtirish, savdo vositasi bo‘lishi ham mumkin deb takidlab o‘tilgan<sup>7</sup>.

O‘zbek olimlari tomonidan ham turli xil ta’riflar ishlab chiqilgan bo‘lib, O.X.Xamidov o‘zining “Transport servisini tashkil etish” nomli darsligida ...turistlarga transport xizmatlari ko‘rsatishni turistlarni va ularning yuklarini bir

<sup>5</sup> The OECD Centre for Entrepreneurship, SMEs and Local Development, as part of the Tourism Committee’s Programme of Work for 2015-2016. –P.6

<sup>6</sup> Stephen J. Page. Transport and tourism. Global perspectives. 3rd edition, Лондон: Pearson education Ltd. 2009. – P. 447.

<sup>7</sup> Биржаков М.Б., Никифоров В.И. Индустрия туризма: перевозки. – СПб.: Издательский дом Герда, 2007. – 528 с.

<sup>8</sup> .Xamidov O.X“Transport servisini tashkil etish” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. Toshkent- “TDIU”-2006

joydan ikkinchi joyga mumkin qadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo‘ljallangan xizmatlar majmui” <sup>8</sup>deyilgan. I.X.Nasimov tomonidan berilgan ta’rifda transport xizmat ko‘rsatish bu-transport xizmatini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan foyda olish maqsadida transport vositalaridan foydalangan holda, yo‘lovchilarni tashish, yuk ortish, tushurish va joylashtirish kabi transport servisini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar majmui tushuniladi<sup>9</sup>.

Bizning fikrimizga ko‘ra, ***turizmda transport xizmatlari bu-*** sayyoohlarni yashash joyidan diqqatga sazovor joylarni ko‘rishlari uchun turli transoport vositalaridan foydalangan holda, bir yoki bir nechta sayohatchilarni va ularning yuklarini kerakli manzillarga eltish va qayta yashash manziliga yetkazish kabi turistik xizmatlar bilan bog‘liq jarayonlar yig‘indisi tushuniladi.

Xorij adabiyotlarda ham, o‘zbek adabiyotlarida ham turizmda transport xizmatlari uchun berilgan ta’riflarning o‘ziga xosligi va aniqligi mavjud bo‘lsada, transport xizmatlariga qisman urg‘u berilgan, bizning ta’rifda turistlar uchun transport xizmatlarining nafaqat bir hududdan ikkinchi hududga borish uchun, shuningdek sayohat davomida foydalanadigan transport xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Turizmda transport xizmatining o‘ziga xosligi shundaki, undan nafaqat sayyoohlар, balki oddiy fuqarolar ham kundalik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda, ya’ni yuklarni tashish, ishga va boshqa manzillarga borishda foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

Gilbert 1980-yillarning oxirida turizmda xizmat ko‘rsatish sifati va iste’molchilarning qoniqish darajasini ortib borayotganini ta’kidlab o’tgan<sup>10</sup>. Turistik transport kontekstida “xizmat”

<sup>9</sup> НАСИМОВ И.Х. “Транспорт хизматлари кўрсатишинг ташкилий-иктисодий механизмларини такомиллаштириш” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши .- Самарқанд., 2010.-226

<sup>10</sup>Gilbert, D.C. Tourism marketing: Its emergence and establishment, in C.P.Cooper (ed.) Progress in Tourism, Recreation and Hospitality Management, Volume 1, London: Belhaven, 1989. – P.77–90.

atamasi mazmunini aniqlash xizmatlarning nomoddiyligi, tez buzilmasligi va bir biridan ajralmasligi sababli biroz qiyin kechadi. Ammo, ingliz olimlari Kotler va Armstrong ushbu uchta atamani quyidagicha ta'riflaydi:

- **Xizmatning nomoddiyligi** – xizmat xarid qilishdan oldin uni ko‘z bilan ko‘rish, tatiib ko‘rish, his qilish, eshitish yoki hidlash mumkin bo‘lmagan narsa.
- **Xizmatning tez buzilishi (saqlanmaslik)** – xizmatni sotish yoki keyinroq foydalanish uchun saqlash mumkin emas.
- **Xizmatning ajralmasligi (istemolchi va servisning o‘zaro bog‘liqligi)** - xizmat ta’mintonchilaridan ajratib bo‘lmaganligi sababli odatda bir vaqtning o‘zida ishlab chiqariladi va iste’mol qilinadi<sup>11</sup>.

Xizmatning muqobil ko‘rinishi shundan iboratki, u yakuniy mahsulot emas, balki jarayonni tashkil qiladi, u taqdim etilganidan so‘ng asl holati yo‘qoladi. Shu nuqtai nazardan, xizmatni iste’molchilarning turli ehtiyojlariga javob beradigan jarayon sifatida qarash mumkin.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning jadallashuvi doimiy tarzda vaqt va joy ta’motida ehtiyoj borligini bildiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, mahsulot xaridorning qo‘lida kerakli vaqtida va joyda bo‘lmaguncha qiymatga ega bo‘lmaydi<sup>12</sup>.

Turistik transportni ta’minalash bilan bog‘liq qaror qabul qiluvchilar tomonidan talab qilinadigan ma'lumot turlari kelajakdagи ehtiyojni prognozlashda va transport provayderlari raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda bu kabi ma'lumotlar marketing tadqiqotlari orqali to‘planadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sayohatni amalga oshiruvchilarning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari (yoshi, jinsi, oilaviy holati, ijtimoiy toifasi, daromadlari va xarajatlari);
- sayohatga talabning mintaqasi geografik holatidan kelib chiqishi va taqsimlanishi;
- sayohat davomida qulay bo‘lgan transportni tanlash;

- transportga bo‘lgan talabning kelajakdagи shakllari (turistik sayohatning qisqa va uzoq muddatli prognozlar);
- turistik transport operatsiyalariga nisbatan davlat siyosati;
- turistik transport turlariga investitsiyalarni va infratuzilmani ta’minalash uchun talabining o‘zaro ta’siri.

Turizmda transport xizmatining tasnifini bir nechta asoslar bo‘yicha ko‘rib chiqish mumkin.

#### *Tegishliligiga ko‘ra:*

- xalqaro (bir nechta davlatlar hududida joylashgan);
- milliy (bir davlat chegarasida joylashgan);
- mintaqaviy (bir xil hududda joylashgan).

#### *Mulkchilik shakliga ko‘ra:*

- davlat (yagona mulkdor davlat hisoblanadi);
- xususiy (xususiy tuzilmalar egasi hisoblanadi);
- xususiy-davlat (egalari davlat va xususiy tuzilmalardir).

#### *Foydalanish turiga ko‘ra:*

- ommaviy turizm uchun (samolyotlar, avtobuslar, poyezdlar, kruiz kemalari, turistik avtobuslar va boshqalarning charter reyslari);
- -individual turizm uchun (xususiy samolyotlar, yaxtalar, shaxsiy avtomobillar);
- umumiy foydalanish va turizm uchun (jamoat transporti, poyezdlar, aeroportlar, vokzallar va boshqalar).

#### *Rivojlanish darajasiga ko‘ra:*

- rivojlangan (turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha xalqaro, mintaqaviy, mahalliy aeroportlar, temir yo‘l vokzallari, avtovokzallar, rivojlangan yo‘nalishlar tarmog‘i yuqori sifatli yo‘llar va yo‘l bo‘yi inshootlari mavjud);
- rivojlanayotgan (turizmni rivojlantirish uchun xalqaro, mintaqaviy, mahalliy aeroportlar, temir yo‘l vokzallari, avtovokzallar, yo‘llarning marshrut tarmog‘i va yo‘l bo‘yidagi ob‘yektlar mavjud, yetarli darajada rivojlanayotgan);
- rivojlanmagan (turizmni rivojlantirish uchun

<sup>11</sup> Kotler, P. and Armstrong, G. Principles of Marketing, 5th edn, Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1991.

<sup>12</sup>Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management, New York: Irwin, 1994.

yeterli miqdorda aeroportlar, temir yo'l kesishmalari va vokzallari, avtovokzallar mavjud emas, yo'llarning yo'nalish tarmog'i va yo'l chetidagi ob'yektlar rivojlanmagan).

### *Funktsional maqsadiga ko'ra:*

- transport vositalari (avtobuslar, avtomobillar, poezdlar, daryo va dengiz kemalari);
- transport ob'yektlari (avtovokzallar, aeroportlar, vokzallar, portlar, marinalar, to'xtash joylari);
- transport yo'nalishlari (daryo, dengiz, temir yo'l, avtomobil, velosiped, piyoda).

Turizmda transport xizmatlarining klassifikatsiyasi deyarli butun transport kompleksini qamrab olganligi sababli turizmni rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qiladi (1.3-rasm).

Butun jahon turizm tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, turizm sanoati transportning 4 ta kichik tarmoqlarini o'z ichiga oladi: havo, temir yo'l, quruqlik, suv va yo'lovchi transporti. Bu transport turlaridan foydalanib sayohat qilish boshqa barcha xizmatlar turlaridan oldinda bo'lib, tipik turistik xizmatlar ro'yxatiga kiritilgan. Sayohat davomida kamida ikkita transport turidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Avtobus, havo va temir yo'l transporti umumiyligi turizm transportining qariyb 88% ni tashkil qiladi. Ammo, har qanday transport turi turizmning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Turizm xizmatlarining rivojlanishiga aviatsiya sanoati eng katta ta'sir ko'rsatadi. Reaktiv dvigatel va reaktiv samolyotning rivojlanishi natijasida turizm ham rivojlanishni boshladi<sup>13</sup>. Xalqaro sayohatlarning qariyb yarmi avtomobil transportiga to'g'ri keladi, havo transportining o'rni esa yildan yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda qit'alararo sayohat qilishda havo transporti eng tez rivojlanayotgan segment bo'lib, bu o'sish jahon savdosining rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi bilan

<sup>13</sup> Weaver David B. Tourism management, John Wiley & Sons. Australia, Ltd., 2000. – 468 с.

<sup>14</sup>Папирян Г.А. Международные экономические отношения: Экономика туризма / Г.А. Папирян. - М.: Финансы и статистика, 2000. – 208с.

<sup>15</sup> Глобальный размах железнодорожного транспорта. Электронный журнал Государственного департамента США № 3, октябрь 2000 г. Том 5 . Джолен Молиторис,

bog'liq<sup>14</sup>.

Turizmning rivojlanish tarixi 1843 yilda bir guruh sayyoohlarni temir yo'l orqali tashish bilan boshlangan. Bugungi kunda suv orqali, quruqlik va havo transportini bir-biriga bog'lab turuvchi jahon intermodal transport tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Avtomobil transportida xalqaro sayohat ayniqsa Yevropada keng tarqagan bo'lib, bu yerda mamlakatlar o'rtasidagi qisqa masofalar va yuqori darajada rivojlangan yo'l tarmog'i ushbu transport turi orqali oson va tez sayohat qilish imkonini beradi<sup>15</sup>.

Avtomobil transporti qisqa masfalarda eng samarali hisoblanadi. Avtomobilarning paydo bo'lishi va keng qo'llanilishi havaskor turizm uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Dunyo bo'ylab turizm sohasida avtomobil transporti eng katta ulushga ega - 42%, sayyoohlar uchun transfer xizmati va ekskursiyalarni transport bilan ta'minlashda esa avtomobil transportining ulushi 92% ga yetadi<sup>16</sup>.

Suv transporti jahon transport oqimida eng kam ulushni egallaydi va bu turdag'i transportlarning tezligi eng kichik bo'lsada, marshrutlar diapazoni, tashish hajmi va yo'lovchi sig'imi bo'yicha boshqa transportlardan eng kattasi hisoblanadi. Shuningdek, dengiz va daryo sayohatlari tobora ommalashib bormoqda va boshqa transport turlariga qaraganda bu eng kam mablag' talab qiladi. Transport kompaniyalari va tashkilotlari zamonaviy xalqaro turizm bozorining beshta asosiy harakatlantiruvchi kuchidan biri hisoblanadi<sup>17</sup>.

Transport nafaqat turizm xizmatlarini rivojlantirishning muhim omili, shuningdek, turistik tashkilotlarning foydasiga ham katta ta'sir qiladi. Masalan, Amerika sayyoohlilik agentliklari umumiyligi mablag' aylanmasining katta qismi aviachiptalarni sotishdan iborat bo'lib, zamonaviy

директор Управления федеральных железных дорог США. – <http://www.infousa.ru/economy/ijee1000.html>.

<sup>16</sup> Бутко И.И. Транспортное обслуживание туризма: учеб. пособие / И.И. Бутко, В.А. Ситников. - М.; Ростов н/д : МарТ, 2006. – 335 с.

<sup>17</sup>Квартальнов В.А. Современные научного познания и исследований //Теория и практика физ. культуры. 2002.– № 11.

transport xizmatlari tizimida avtomobil va temir yo'llarning uzlusiz tarmog'ini, qo'shimcha havo yo'laklarini yaratish, yangi turdag'i transport vositalarini jalb qilish, ularning ishlash tezligi, qulayligi, harakat xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradigan bo'lishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sayyohlik transportining ixtisoslashgan, ajratilgan shakllari mavjud bo'lsa-da, mahalliy aholi va turistlar tomonidan turli darajada foydalaniladigan transport turlarini ham alohida e'tirof etish zarur. Shahar avtobuslari, metro tizimlari va turistik hududlarga muntazam qatnovchi havo transportlari sayyohlar va mahalliy aholi tomonidan bir vaqtning o'zida foydalaniladi va bu ba'zi hollarda o'zaro raqobat muhitini keltirib chiqaradi.

Turistlar turli transport vositalaridan foydalanganda, boshqa mahalliy foydalanuvchilar bilan raqobat kelib chiqishi mumkin bo'lgan hududlar uchun keng ko'lamli iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va siyosiy muammolarni olib keladi. Davlatlar uchun transport samaradorligini oshirish qanchalik muhim bo'lmasin, geografik omil turizmda transport xizmatlarini ko'rsatishda bir qancha muammolarga sabab bo'ladi (1.4-rasm).

Turizmda transport xizmatlarini ko'rsatishda ta'sir qiluvchi geografik omillar quyidagilardan iborat:

**Joylashgan o'rni bilan bog'liq noqulayliklar:** hududning joylashgan joyi boshqa mamlakatlardan sayyoohlarni jalb qilishda bir qancha noqulayliklarni hosil qilsa, joylashuvning qulay bo'lishi esa turizm bozorida o'zining o'rmini topishda yaxshi imkoniyatlar yaratadi va transportga bo'lgan talab ham ortib boradi. Yevropa mamlakatlarning ba'zilari turizm bozorining markazida joylashganligi sababli turistik transport yuqori darajada xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, xalqaro transport tarmog'idagi asosiy kesishmasida joylashgan manzillarda ham tashvishli holatni sezish mumkin. Agar hudud global transport tarmoqlari bilan yaxshi bog'langan tranzit hudud bo'lsa, bu touristlarni tashish uchun bir qancha qulayliklarga

ega bo'ladi. Uzoq Sharq mamlakatlarining joylashuvi jihatdan afzalligi shundaki, Xitoy, Avstraliya kabi muhim turizm bozorlari ulardan unchalik uzoq bo'limgan masofada joylashgan. Misol sifatida Singapur davlati yuqorida aytib o'tilgan ikki jihatga ham to'g'ri keladi. Masalan, suv havzalari, tog'larning mavjudligi marshrut tarmog'ining uzlusiz transport xizmatiga ega bo'lishiga xalaqit berishi mumkin<sup>18</sup>.

**Jismoniy cheklovlar:** turizm transport tizimi uchun topografiya, gidrografiya va iqlim cheklovlarini ham kuzatish mumkin. Bunday cheklov larga ega bo'lgan turistik hududlarda transportlarning erkin harakatlanishi bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Masalan, belgilangan joydagi topografik xususiyatlar tashish hajmiga to'sqinlik qilishi mumkin. Suv transporti turizmni yaxshilash imkonini bersa-da, ba'zi joylarda to'sqinlik qiluvchi holatlarni kuzatish mumkin. Iqlim bilan bog'liq omillar suvda, havoda, quruqlikdagi transportga va keyinchalik turistlarning harakatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, cheklov larning mutlaq va nisbiy to'siqlari bir-biridan keskin farq qiladi.

**Masofa va xarajatlarning nomutanosibligi:** Narxlar va hududlarga kirish bilan bog'liq qiyinchiliklar turizm transportida muammolarni keltirib chiqaradigan yana bir asosiy omil hisoblanadi. Odatta, xarajat bilan masofa o'zaro mutanosib bo'lib, bir omilning o'sishi boshqasini ham ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Chunki xarajat faqatgina tashishda sarflangan mablag' uchun emas, balki jismoniy kuch, energiya, vaqt va boshqa resurslarni talab qiladi. Belgilangan destinatsiyaga yetib borish uchun bosib o'tiladigan masofa va sayohatni yakunlash uchun zarur bo'lgan energiya, harakatlar va resurslar nuqtai nazaridan qiyinchilik yo'l bilan bog'liq bo'lib qoladi. Transport xarajatlari odatta masofaning oshib borishi bilan birga ortib boradi va bu kabi xarajatlar turistlarni tashish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishdagi asosiy hal qiluvchi omil bo'lganligi sababli muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, masofaga bog'liq bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish va to'lovlarning mosligiga erishish muhimdir.

**Yo'llarning tirbandligi:** yo'lda bir tekis

<sup>18</sup>M.R.Dileep; Francesca Pagliara "Transportation Systems for Tourism"/advances in spatial science, 2023.—

harakatlanishda vaqt va manzilga yetkunga qadar tirbandlik bilan bog'liq turli omillar ta'sir qilishi mumkin. Bo'sh maydon bilan bog'liq omillar turizm transportiga ta'sir qilishi mumkin, bu hatto turizmga bo'lgan talabni pasayishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, yuqori tirbandlikka ega bo'lgan hududlar nafaqat transportdan foydalanishga ta'sir qiladi, shu bilan birga, manzilning turistlar uchun jozibadorligini ham kamaytirishi, tirbandlik holati diqqatga sazovor joylarga borish vaqtini kechiktirishi va narxini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, kechikish yoqilg'i sarfi bilan bog'liq xarajatlarni ortishiga olib keladi. Marshrut bo'ylab harakatlanishdagi noqulayliklar va transport tizimlarining sig'imi ham turizm transportiga ta'sir qiluvchi yana bir asosiy sabablardan hisoblanadi. Marshrut chizig'i bilan bog'liq muammolar keng tarqalgan bo'lib, u tarmoqdagi noqulayliklar, topografik omillar tufayli chiziqli bo'lmasligi mumkin.

**Vaqt va makon bilan bog'liq tafovut:** bu turli xil harakatlanish to'siqlari tufayli geografik joylashuvlar o'rtaida sayohat vaqtini ortib borishining asosiy sababidir. Turizm bozoridan bir xil masofada joylashgan ikkita destinatsiyaga yetib borish vaqtini turlicha bo'lishi mumkin. Sayohat vaqtida tirbandlik, tezlikdagi cheklovlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammo jiddiy zararlarni keltirib chiqarmoqda. Bu kabi holatlar uchun yechim sifatida samarali transport, aloqa va tegishli texnologik va ijtimoiy innovatsiyalarga ega bo'lish orqali kamaytirish mumkin. Transport tizimining sifati va infratuzilmaning birlashishi bir qancha noqulayliklarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan farqli ravishda, vaqt va makon bilan bog'liq tafovuti bo'lgan joylarda sayohat vaqtining qisqarishi kuzatiladi.

**maxsus turlarning tashkil etilishi:** diqqatga sazovor joylarga sayohatlar sonini oshirish uchun joylarda sifatli va hamyonbop tashkillashtirilgan transport tizimini taklif qilish bugungi kunning muhim vazifasiga aylanib bormoqda. Tashkillashtirilgan transport tizimini yetarli emasligi yoki umuman mavjud bo'lmasligi xalqaro turizm bozorida hududlarning raqobatbardoshligini susaytirishi mumkin. Transport tizimining sifati va ko'lami destinatsiyalar uchun muhim xususiyatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Xalqaro yo'nalishlar butun dunyodan sayyoohlarni jalb qilish uchun mahalliy,

mintaqaviy, milliy yoki xalqaro aloqalarni mustahkamlashni talab qiladi. Dunyoning bir nechta mintaqalarini to'g'ridan-to'g'ri qamrab oladigan transport tizimining mavjudligi ommaviy turizm yo'nalishlarini global miqyosdagi sayohatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Maxsus ekskursiyalarni tashkil qilishda, nogironlar, rivojlanishi bilan bog'liq muammolari va boshqa maxsus ehtiyojlari bo'lgan sayohatchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish tajribasiga ega bo'lgan transport boshqaruvchilari bilan ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali transport boshqaruvchilari bilan hamkorlik qilib, maxsus tur tashkilotchilari sayohatchilarning xavfsiz va qulay sayohat qilishlarini va unutilmas kechimalardan bahramand bo'lishlarini ta'minlashi mumkin.

### Adabiyotlar

1. Weaver David B. Tourism management, John Wiley & Sons. Australia, Ltd., 2000, - 468 с
2. М.К.Пардаев, Ё.Ж.Исроилов “Автомобиль транспорти хизматини кўрсатувчи корхоналар таҳлилининг айrim жиҳатлари”, Тошкент “NOSHIRLIK YOG'DUSI” нашриёти, 2011 йил.
3. Sinclair, M.T. and Stabler, M. The Economics of Tourism, London: Routledge, 1997.
4. Gilbert, D.C. Tourism marketing: Its emergence and establishment, in C.P.Cooper (ed.) Progress in Tourism, Recreation and Hospitality Management, Volume 1, London: Belhaven, 1989. – P.77–90.
5. Kotler, P. and Armstrong, G. Principles of Marketing, 5th edn, Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1991.
6. Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management, New York: Irwin, 1994.
7. Weaver David B. Tourism management, John Wiley & Sons. Australia, Ltd., 2000. – 468 с.
8. Папирян Г.А. Международные экономические отношения: Экономика туризма / Г.А. Папирян. - М.: Финансы и статистика, 2000. – 208с.
9. Котельникова В.Е. управление развитием услуг транспортной инфраструктуры туризма: дис.канд.экон. наук- р., 2014-19 б.

10. Глобальный размах железнодорожного транспорта. Электронный журнал Государственного департамента США № 3, октябрь 2000 г. Том 5 . Джолен Молиторис, директор Управления федеральных железных дорог США. – <http://www.infousa.ru/economy/ijee1000.html>.
11. Бутко И.И. Транспортное обслуживание туризма: учеб. пособие / И.И. Бутко, В.А. Ситников. - М.; Ростов н/д : МарТ, 2006. – 335 с.
12. Квартальнов В.А. Современные научного познания и исследований //Теория и практика физ. культуры. 2002.–№ 11.
13. M.R.Dileep; Francesca Pagliara “Transportation Systems for Tourism”/advances in spatial science, 2023.–P.54.
14. Rodrigue, J.P.,Comtois,C.&Slack,B. The geography of transport systems. Oxon, UK: Routledge, 2006.
15. НАСИМОВ И.Х. “Транспорт хизматлари кўрсатишининг ташкилий-иктисодий механизмларини такомиллаштириш” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши .- Самарқанд., 2010.-226